

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O’RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

“GO‘RO‘G‘LI” TURKUMI DOSTONLARIDA QAHRAMONNING UCH OLAM BO‘YLAB SAFARLARI

Farrux JABBOROV,

O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15290906>

Annotatsiya. Maqolada “Go‘ro‘g‘li” turkumga mansub “Malika ayyor”, “Mashriqo”, “Og‘a Yunusning olib qochilishi”, “Tarkibadaxshon”, “Nurali” dostonlarida misolida qahramonning safarlari vertikal va gorizonttal yo‘nalishda amalga oshirilgani yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: doston, epos, syujet, motiv, safar motivi, Go‘ro‘g‘li.

Аннотация. В данной статье на примере дастанов, входящих в цикл «Гороглы» – «Малика айёр», «Машириқо», «Ога Юнуснинг олиб қочилиши» (Похищение Ага Юнуса), «Таркибадахшан» и «Нурали» – рассматриваются путешествия героев, совершаемые в вертикальном и горизонтальном направлениях. Мотив путешествия представлен как важный элемент сюжета, отражающий как внешние, так и внутренние изменения эпического героя, а также развитие художественной идеи произведения.

Ключевые слова: дастан, эпос, сюжет, мотив, мотив путешествия, Гороглы.

Annotation. This article discusses how the hero’s journeys are depicted in vertical and horizontal directions in the epic tales “Malika Ayyor”, “Mashriqo”, “Oga Yunusning olib qochilishi” (The abduction of Ogha Yunus), “Tarkibadakhshon” and “Nurali”, which belong to the “Gurugli” genre.

Keywords: epic poem, tale plot, motif, journey motif, Gurugli.

“Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlari jahon folklorida unikal hodisa bo‘lib, keng geografik mintaqada tarqalganiyoq tarixiy ildizlarining chuqurligini ko‘rsatib turibdi. Mazkur epos namunalari YAqin va O‘rta Sharq, Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz mintaqasida asosan turkiy xalqlar (turk, ozarboyjon, turkman, o‘zbek, qoraqalpoq, qozoq, qirg‘iz, tatar v.b.) hamda ularga qo‘shni xalqlar (arman, gruzin, kurd, tojik v.b.) og‘zaki ijodida uchraydi.

Bugun O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Folklor arxivida versiya va variantlari bilan qo‘shib hisoblaganda 500 dan oshiq dostonlar saqlanmoqda [9, 339]. Shundan 200 ga yaqini “Go‘ro‘g‘li” turkumiga mansub asarlar hamda ularning versiya va variantlaridir [8, 173]. Birgina statistik ma‘lumotdan ham ko‘rinib turibdiki, “Go‘ro‘g‘li” dostonlari: a) o‘zbek xalqining epik xazinasida salmoqli o‘ringa ega; b) mazmun-mundarijasi nihoyatda boy, serqatlam va rang-barang. Epik silsilaning tarixiy ildizlari o‘lib-tiriluvchi tabiat hamda quyosh mifologiyasiga bog‘lanishi ilmiy-nazariy asoslangan [12].

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Baxshilar “Go‘ro‘g‘li” turkumligiga oid dostonlarni an'anaviy qirq, yetmish ikki va bir yuz yigirma sanog‘ida jamlab ko‘rsatishadi. Akademik To‘ra Mirzayevning yozishicha, o‘zbek xalqi orasida tarqalgan “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining 100 dan ortig‘i ikki epik an'anada - ichki bo‘g‘iq ovozi va tashqi ochiq ovozi an'anada jonli og‘zaki ijroda bizgacha yetib kelgan [8, 182]. Mana shunday keng ko‘lamli va ulkan turkumlikning tarkib topishi ikki-uch asrda ro‘y bermagani, aksincha, xalqning badiiy tafakkuri bilan birga-birga asrlar bo‘yi, ehtimol, ming yillar osha shakllanib kelgani folklor qonuniyatiga xosdir.

O‘zbek “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlari bo‘yicha olib borilayotgan keyingi tadqiqotlar obrazlar tizimi va asosiy motivlar genezisiga oid yangidan-yangi xulosalarni yuzaga chiqarmoqda. Tadqiqotchilar ilgari qariyb ahamiyat berilmagan jihatlarga e‘tibor qaratmoqdalar. Jumladan, Go‘ro‘g‘li hamda uning avlodlari uyushtirgan safarlar gorizont (yer yuzi bo‘ylab) va vertikal (quyi - yerosti, suvosti va yuqori - ko‘k yuzi) yo‘nalishda amalga oshirilgani tahlillarda ayon bo‘lmoqda.

XX asr muhitida, eposga realistik talab kuchaygan sharoitda yozib olingan dostonlarda mifologik tafsilotlar bor bo‘yi bilan ko‘rinmasligi tabiiy. Lekin turkumlikdagi asarlarning badiiy to‘qimalariga sinchi nazari bilan qaralsa, ajdodlarimizning qadimiy inonchlaridan meros bo‘lib kelayotgan vertikal yo‘nalishdagi safarlarga ishoralarni ilg‘ash qiyin emas. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li ijrosidagi “Malika Ayyor” dostoni Go‘ro‘g‘li va Avazxonning yerosti olamiga borib-kelishi ochiq-oydin tasvirlangani bilan xarakterlidir.

Go‘ro‘g‘li safar oyida tabuni buzib, Zebitcho‘ldagi Shakarko‘lga ovga chiqqanda Malika Ayyor bilan uchrashib qoladi. Sultonning “Qaydan bo‘lasan?” degan so‘roviga javoban pari “...shahri Shabistondan bo‘laman... Izlasang topmaysan yerning ustidan, Bir mazgilim kun chiqmagan go‘riston, Meni so‘rsang, go‘ristondan bo‘laman... Shahrimning otini Torkiston derlar, Bor, Go‘ro‘g‘li, Torkistondan bo‘laman” [1, 8-9], deya javob qiladi.

Malika Ayyor tilidan kuylangan qo‘shiqda uning manzili yer ostida joylashgani aniq aytilmoqda. Shabiston - qorong‘i o‘lka, degani. Keyingi satrlarda ham vatani yerning ustida emasligi, kun tushmaydigan joyligi, qabr kabi tuproqning tagida ekani urg‘ulangan. Torkiston toponimida ham zulmat mamlakati ma‘nosi yashiringan [10, 11].

Torkiston safariga Go‘ro‘g‘li emas, Avazxon chiqadi. Unga Asad va Shodmon merganlar hamroh bo‘ladi. Dostonning barcha variant va versiyalarida Torkiston qayerda joylashgani noma‘lumligi, borish yo‘lini ham hech kim bilmasligi qayta-

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

qayta ta'kidlanadi. Beldos qiriga yetganda merganlar borar manzilingni bilasanmi o‘zi, deb Avazni savolga tutishi bejiz emas. “Dunyoning yuzidan chiqib ketdik. Endi dunyoning chetiga borayotibmiz” [1, 37], degan e'tiroz zamiridagi ma'lumot nihoyatda muhim bo‘lib, qadimgi ajdodlarimizning uch qavatli olam, yerosti dunyosi haqidagi tasavvurlariga tutashadi. Baxshi qo‘rqoq merganlar tilidan “Yer ostiga tushib ketsak kerak-da, Undan so‘ng Torkiston yetsak kerak-da” [1, 46], deya yoki boshqa bir usulda Malika Ayyorning manzili haqidagi tasavvurlarni bot-bot eslatib turadi.

Sinovlarga to‘la uzoq safardan so‘ng Avazxon, Shoqalandar (asli Go‘ro‘g‘li, qiyofa o‘zgartirgan), Shozargar (asli Hasanxon, qiyofa o‘zgartirgan) Ko‘klamtoqqa yetib boradi. Bu tog‘ning uch yuz oltmish darasi borligi bejiz emas. Aylananing ham 360 daraja (gradus)i mavjudligi beixtiyor yodga tushadi. Demak, Ko‘klamtog‘ yer yuzini to‘liq o‘rab turibdi, biroq undan oshib o‘tib bo‘lmaydi. Chunki tilsimot bilan tog‘ning suratiga o‘xshatib Torkistonning darvozasiga ko‘ndalang tashlab qo‘yilgan. Shoqalandar “Yoril!” deb zarb qilsa, yo‘l beradi. Torkistonning bo‘sag‘asi ostidan katta daryo chiqib oqadi, o‘ng yog‘ida yaydoq Qora tulpor suvlaydi, uni mingan kishi Malikani olib ketadi, boshqalar esa bandargohda qirq ming ajdarhoning damida kuyib o‘ladi.

Shoqalandar, Shozargar va Avazxon mashaqqatlarni yengib, Torkistonga tushib boradi. Epik makonlar tasviri odatda dostonidan dostonga ko‘chib yuradi. Ammo Torkistonning tavsifi beqiyos va betakror, bunaqasi faqat islom dini yetib bormagan turkiy elatlar mifologiyasida uchrashi mumkin. Ildizlarini ham o‘sha davrlar va o‘sha manbalardan izlamoq joiz: “Bu Torkiston shunday shahar: buni qorong‘ilikda parilar, devlar duo bilan, sehr-jodu bilan yasagan edi. Bu o‘zi qorong‘ilik dunyodan edi. Bu qorong‘ilik dunyoga yorug‘ dunyoning kuni bilan oyining shu‘lasi urmas edi. “Bu oy bilan oftobga muhtoj bo‘lmayik”, deb yaxshi olmoslardan, dur-gavharlardan oy, oftob qilib, mayda, o‘tkir qimmatbaho toshlardan yulduzlar qilib qo‘ygan edi. Bu qorong‘ilikda Torkistonning shahri shunday yorug‘, yarqillab turgan edi” [1, 86].

Folklorshunos S.Sariyev “Malika Ayyor” dostoni va yoqutlarning “Olonxo” eposida uch qatlamdan iborat dunyo haqidagi mifologik tasavvurlar yuzasidan o‘xshashlikni ko‘radi: yer osti yovuz kuchlari ustidan g‘alaba qilish uchun o‘rta qatlam, ya’ni yer usti kuchlari va osmonning qushlar timsolidagi ezgulik kuchlari hamkorlikda harakat qilishi ikki epik asardagi yagona o‘zak syujet hisoblanadi [11, 124]. “Malika Ayyor” dostoni asosiy motivlari va obrazlar tizimi genezisi tekshirilganda qadimgi quyosh mifologiyasiga, oy ilohasi haqidagi inonchlarga,

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

ibtidoyi odamning o‘limni anglashga urinishidan tug‘ilgan mifik qarashlarga borib taqalishi ma‘lum bo‘ladi [6, 57-59; 7, 313-314].

“Go‘ro‘g‘li” turkumiga mansub yana shunday dostonlar borki, qahramonlari ko‘k yuziga yoki suv ostiga safar qiladilar. Bu haqda o‘zbek eposshunosligida endi-endi gapirilmoqda, ilk tadqiqotlar olib borilmoqda. Yana shu Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidan yozib olingan “Mashriqo” dostonida [2] Go‘ro‘g‘li Shahrizar (Zarrin el, oltin shahar)ga ketayotganda baland tog‘lar orasidagi qisilchang (tor) yo‘lda uchar tuyalar uni G‘irotning ustidan ko‘tarib ketadi. Ular Shahrizar malikasi Mashriqoning osmoni devlari edi. Avazxon mashaqqatli safar so‘ngida otasini qutqarib, malikani ham o‘ngarib qaytadi. Qizig‘i, yunon afsonasida Yason va argonavtlar duch kelgan tinimsiz to‘qnashadigan qoyalarga Avazxon ham ro‘para bo‘ladi. Farqi shundaki, o‘zbek eposida dengiz yo‘q, voqyealar quruqlikda yuz bermoqda. Alomat tog‘larni harakatga keltiradigan omil esa g‘ordagi ayyorlik charxi bo‘lib, ularni afsonaviy chol aylantirib turadi. Yana bir qiziq fakt, o‘zbek xalq dostonlarida olamlar orasidagi o‘tik, tuynuk “bandargoh”, “bandargi”, ya‘ni port deyiladi. Malikaning ismi sharq (kunchiqar) so‘zidan yasalgani, Shahrizar esa quyoshning timsoli bo‘lgan oltinga aloqadorligidan ham ushbu dostonda qahramonning safari samoga bo‘lgani oydinlashadi.

Hazratqul Xudoyberdiyevdan yozib olingan “Og‘a Yunusning olib qochilishi” dostonida ham mifologik qatlamlar zich saqlangan. Go‘ro‘g‘li sulton qirq yigit, ming navkari bilan olti oylik ovga ketganidan shahri Tilsim podshosi Ahmon dev xabar topib, eski kasali qo‘ziydi. U yoshligidan Yunus pariga oshiq edi, ammo raqobatda Go‘ro‘g‘lining qo‘li baland kelgandi. Ahmon o‘ttiz yilda qulay vaziyat tug‘ilganidan foydalanib, Yunus parini olib qochadi. Avazxon tutingan onasini qutqargani boradi. “Shahri Tilsim odamzod ko‘ziga bir shisha qoplangan gumbaz ichida ko‘rinar edi” [3, 288]. O‘lmas maston yigitga sirni ochadi. Qo‘liga ajdarning tishini tutqazib, uni shishaga tegdirsa, yo‘l berishi, ichkari yurganda orqa tomoni yana shisha bo‘lib qolishini aytadi. “Oldingdan ikki daryo chiqadi. Biri kun chiqishiga qarab oqadi, biri kun botishiga qarab oqadi. Kun chiqishiga oqadigan daryodan o‘zing ham, oting ham suv icha ko‘rma. Kun botishga oqayotgan daryo suvi sharbatdir. Kun chiqishiga oqar daryo suvi zahardir. Bulardan eson-omon o‘tsang, bir katta g‘or bor, bu g‘orda ming ajdahor bor. Shu ajdarholar navbatma-navbat yo‘lni poylab chiqadi. Shu ajdarhoga shu tishni ko‘rsatsang, joyida qotib qoladi. Ana bu g‘ordan o‘tganingdan keyin, zulmat tuman ichida bir fasl yurganingdan keyin shahri Tilsimga yetasan...” [3, 311-312], “Shishali tog‘ bamisoli qirq qavat qatovga o‘xshab yotgan bir tilsimdan bino

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

bo‘lgan tog‘ edi. Shu toqqa borib, Avazxon O‘lmas maston momosi bergan haligi ajdarhoning tishini bir urdi. Shishali tog‘ning bir qatovidan bir darvoza ochilib, yana bir keng jahonga oralab keta berdi. Orqasi doimgiday yana shisha bilan qoplanib bora berdi” [3, 312].

Devlar mamlakatida Avazxonga odamzod naslidan bo‘lgan, Quyiston - quyi o‘lkadan olib qochib kelingan xizmatkor qiz ko‘mak beradi. Bu ma‘lumot shahri Tilsimning osmonda joylashganiga bir ishoradir. Avazxon yana g‘or ichidan o‘tib, devning orom bog‘iga borib yetadi: “Orom bog‘ xuddi kunduzning kuniday yop-yorug‘, turli-tuman yorug‘ toshlar qo‘yilgan: oq-qizil, sariq, ko‘k yorug‘ beradigan toshlar bog‘ ichini nurga to‘ldirib turibdi” [3, 319]. Mana shunday tilsimli tasvirlarga boy doston genezisini, albatta, islomdan oldingi turkiy mifologik dunyoqarashga tayanib ochish mumkin.

Chori Umirovdan yozib olingan “Tarkibadaxshon” dostonida [4] Avazxon malika Gulruxsorni suvosti mamlakatidan olib keladi. Lekin uning o‘zi bevosita ko‘l tagiga tushmaydi, balki devlar ko‘magidan foydalanadi. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidan yozib olingan “Nurali” dostonida [5] esa Go‘ro‘g‘lining nevarasi Nurali Oqtosh malikasi Marg‘umon oyimga uylanishi, keyin o‘g‘li Jahongir tug‘ilishi va uchovi daryoi Maskanda g‘arq bo‘lishi, er-xotin ikki qirg‘oqqa chiqib qolishi, bolani esa katta baliq yutib yuborishidan hikoya qilinadi. Ko‘rinib turibdiki, bu asarda ham ajdodlarimizning suv olamiga safar bilan aloqador qadimiy qarashlari aks etgan.

O‘zbek “Go‘ro‘g‘li” turkumlighi Go‘ro‘g‘lining o‘zi, tutingan farzandlari (Hasanxon, Avazxon), nevaralari (Ravshan, Nurali) va chevarasi (Jahongir)ning yer ustida sharqu g‘arb, janubu shimolga, yerosti, suvosti va ko‘k yuziga safarlari haqidagi dostonlardan iborat bo‘lib, epik qahramonlar to‘rt pog‘onali murakkab nasliy shajarani hosil qilishi bilan jahon folklorida favqulodda ijodiy hodisa sanaladi. Dostonlar genezisiga doir yangi tadqiqotlar ko‘rsatmoqdaki, o‘zbek “Go‘ro‘g‘li” turkumlighi keyingi asrlarda boshqa manbalardan material o‘zlashtirish orqali paydo bo‘lmasdan, aksincha, mifologik bosqichdayoq yaxlit dunyoqarash mahsuli sifatida shakllangan va badiiy tafakkur evolyutsiyasi natijasida yirik epik janrlargacha o‘sib borgan. Bu haqdagi xulosalarni yanada qat‘iylashtirish uchun esa islom dini yetib bormagan turkiylar, jumladan, oltoy folklori materiallari bilan qiyosiy-tipologik, qiyosiy-tarixiy va qiyosiy-genetik tadqiqotlarga zarurat tug‘ilmoqda.

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Малика айёр / Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли. Ёзиб олувчи: М.Эрназар ўғли. Нашрга тайёрловчилар: Х.Зарифов, З.Хусаинова // Малика айёр. Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1988. – Б. 6–208.
2. Машрико / Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли. Ёзиб олувчи: Б.Каримов. Нашрга тайёрловчи: З.Хусаинова // Малика айёр. Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1988. – Б. 209–280.
3. Оға Юнуснинг олиб қочилиши / Айтувчи: Ҳазраткул Худойбердиев. Ёзиб олувчи: С.Асқаров. Нашрга тайёрловчилар: С.Асқаров, Т.Мирзаев // Малика айёр. Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1988. – Б. 281–235.
4. Таркибадахшон / Айтувчи: Чори Умиров. ЎЗР ФА Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институтининг Фольклор архиви. Инв. № 1814.
5. Нурали / Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли. Ёзиб олувчи: Б.Каримов. Нашрга тайёрловчи: М.Саидов // Нурали. Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1989. – Б. 118–193.
6. Джаббаров Ф. Х. Мотив ложной смерти как ключ к генезису дастана “Малика Айёр” // East European Scientific Journal. #11 (51), 2019 part 10. Warsaw (Poland). – P. 57–59.
7. Жабборов Ф. Эпический близнец культа Нана(й) // Материалы международной научной конференции «Роль художественной литературы в межкультурном диалоге». Сумгаит (Азербайджан), 2018. – С. 313–314;
8. Мирзаев Т. Халкимиз севиб ўқиган китоб // Ҳикояти Гўрўғли Султон. – Тошкент: Адабиёт учкунлари, 2013. – Б. 170–214.
9. Мирзаев Т. Ҳоди Зариф суҳбатлари. – Тошкент: Шамс-АСА, 2013. – 382 б.
10. Саидов М. “Малика Айёр” достони. – Тошкент: Фан, 1964. – 127 б.
11. Сариев С. “Малика айёр” достонининг қўлёзма нусхаси // Ўзбек фольклоршунослиги масалалари. VI жилд / Тузувчи ва масъул муҳаррир: М.Жўраев – Тошкент: Фан, 2017. – Б. 119–127.
12. Турдимов Ш. “Гўрўғли” достонларининг генезиси ва тадрижий босқичлари. – Тошкент: Фан, 2011. – 240 б.